



ADABIY TA'SIR, IZDOSHLIK VA O'ZIGA HOSLIK

Meretgeldieva Aygul

NDPI, Boshlang'ich ta'lim fakulteti

3-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7831436>

ARTICLE INFO

Received: 06th April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 15th April 2023

KEY WORDS

Navoiyning she'riyati, Sharq shoirlari, naziralarning o'ziga hosligi, adabiy-ba'diy an'analar, radif va qofiyaning nomoyon bo'lishi.

ABSTRACT

O'zbek adabiyotining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning izdoshlariga ta'siri juda kuchli ko'rnishda tasvirlanadi. Har bir so'zlarini nasihat qilib olgan podishoxlarda o'zlarini Navoiyning she'riyatida o'zgacha o'rnini his qiladi va o'zining dunyosini yaratadi.

Adabiyotimiz tarixida "G'azal mulking sultoni" Alisher Navoiy teran va tengsiz she'riyatidan ijodiy ta'sirlanmagan, uning fikr-kechinmalariga hamoxanglik va yaqinlik tuymagan, asarlarining go'zal badiyatidan zavqlanmagan shoirni uchratish amri mahol.

Qalamkashlar boy so'z xazinasidan, yuksak mahoratidan baxra olib, ijodiga chuqur hurmat va ixlos bilan qarab, javob tariqasida naziralar yaratganlar, taxmislar bog'laganlar. Shox va shoir Muhammad Shayboniyxon ham o'zining buyuk zamondoshi asarlaridan ilhomlanib, uning g'azallari ruhi, uslubi va shakliy uyg'unligini saqlagan holda bakadri imkon naziralar bog'lagan. Ma'lumki, Sharq shoirlari o'tmish yoki zamondosh ijodkorlarning o'zlariga nihoyatda manzur bo'lgan, havaslarini keltirgan g'azallariga javob aytishga kirishar ekanlar, nazirachilikning talablariga ko'ra, avvalgi asarning yetuk g'oyalarini yanada takomillashtirishlari, mavzuning tahlil va talqinini chuqurlashtirishlari, badiiy barkamolligini yuksaltirishlari yoki, hech bo'lmaganda, asli bilan barobar kela oladigan ijod maxsulini yaratishlari zarur bo'lgan.

Bizning nazarimizda, Navoiydek zabardast so'z san'atkori bilan ijodiy bellashishga, kuch sinashga harakat qilgan birona shoirga, shu jumladan, Shayboniyxonga nisbatan ham, mana bu jihatdan Navoiydan o'tkazib yuboribdi, undan o'zib ketibdi yoki unga tenglashibdi, degan bahoni berib bo'lmaydi, albatta. Biroq Shayboniyxonning ijodda ulug' shoirning adabiy-badiiy an'analarini davom ettirishga intilishi, havas qilishi, unga taqlid qilishi, ergashishi va ana shu jarayonda san'atkor sifatida shakllanib, ma'lum natijalarga erishishi mohiyat e'tibori bilan diqqatga sazovordir. Shayboniy devonida Navoiyning to'rt g'azaliga javob ko'rinishi uchraydi. Bunda u barcha o'rinlarda ham avval Navoiydan bir bayt keltiradi, so'ngra unga javob aytadi. Jumladan, "Mavlono Alisher aytur" deb Navoiyning:

Tong emas gar chin yuzinda qaxrdin mavjud emas,

Ko'zguning chunkim ko'rinmoq javharin ma'hud emas,-



bayti keltirilib, keyin "Va'al javob" jumlasida Shaybonining:
Yer yuzindin o'zga tong faxmima chun mavjud emas,
Ko'nglim ichra yordin o'zga kishi ma'xud emas,-
matla'li javobiya g'azali beriladi. Navoiyning:
Ko'ngil har tun farog' istab balo tog'ini yostonmas,
Agar har dam necha katla ul oy kuyini oylonmas,-
bayti bilan boshlanuvchi g'azaliga hasbi hol ruhida yozilgan:
Bilingkim, oshiqi sodiq bu tun yostiqa yostonmas,
Ko'ngulkim ishqg'a yuzlansa, bu dunyo qiyin oylonmas,-
matla'li naziradir.

Yuqorida zikr etilgan g'azallar orasida umumiy bir yaqinlik bo'lishiga qaramay, ba'zi jihatlarida farq ham ko'zga tashlanib turadi. Chunonchi, Shayboniy g'azallari til va ifoda e'tibori bilan salaflarning she'rlaridan ancha sodda. Shu bilan bir qatorda, g'oyaviy va ba'diiy yo'nalish jihatdan sezilarli farq qiladi. Bulardan qat'i nazar, Shaybonining buyuklar izidan borib buyuklikka intilishi, go'zallikga havas qilishi va shu asnoda durustgina she'riy misralar tiza olganligi ahamiyatlidir.

Shuningdek, Shayboniy devonida boshqa shoirlarning asarlaridan ham namunalar uchraydi. Masalan, "Ta'vili Shohbaxthon" sarlavhasi ostida berilgan nasriy matnda Ahmad Yassaviyning "favoidi atroq orasida mashhur" muridlaridan Hakim ota Sulaymon qalamiga mansub:

Oshiq kerak telbatek, telbani kim yig'aro,
Erikmishda do'stlarim irgib asrlon sig'aro,-

satrlarini iqtibos sifatida keltiradi. Shu matnning so'ngida Navoiy "Majoliis un-nafois" asarida" ... chun donishmand va istiloh bilur kishi erdi" deb ta'rif bitgan mavlono Husayn Xorazmiyning ushbu baytini esga oladi:

Kishiga aytmadim hargiz ko'ngil sirrin, vale hardam,
Ko'zim yoshi qilur paydo mening rozi nihonimni.

Mazkur misollardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Shayboniy she'riyatida Sulaymon Boqirg'oniy, Said Imomiddin Nasimiy, Husayn Xorazmiy, Alisher Navoiy kabi mutasavvuf ijod ahlining ta'siri kuchli bo'lgan, ularga ergashib o'zi ham o'nlab orifona g'azallar yozgan.

Adabiy ta'sir va izdoshlikning samarasi o'laroq, Shayboniy ijodda ma'lum o'ziga hosliklarga ham erishgan. Bu hol, hususan shoir qo'llagan radiflarda ko'zga tashlanadi. Radif qofiyaning yaqin yo'ldoshi bo'lib, she'rga ohangdorlik va musiqiylik bag'ishlaydigan, ta'sirchanligini oshiradigan, ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash va urg'u berish uchun xizmat qiladigan badiiy-leksik vositalardan biridir. Radif so'zining lug'aviy ma'nosi izma-iz keluvchi, ergashuvchi bo'lib, poetik istiloh sifatida she'riy misralarda kofiyadan so'ng (ba'zan oldin) aynan takrorlanib keluvchi, bir asar doirasida to'liq qo'llanuvchi so'z, so'z birikmasi yoki gapdir. "Funun ul-balog'a" asarining muallifi shoir va adabiyotshunos Shayx Ahmad Taroziy: "... radif agarchi she'rda lozim ermas, vale andin she'rga oroyishi tamom hosildir" deb hisoblaydi. Shayboniyxonning 306 g'azalidan 109 tasi radiflidir. U mumtoz adabiyotda ko'p takrorlangan an'anaviy radiflardan tashqari, hali biror shoir tomonidan qo'llanmagan yoki kam ishlatilgan so'zlarni ham radif qiladi. Uning ijodida otlar (jonim, kokulning, meros, chibin), sifatlar (bedor, hush, barobar, so'vuq), olmoshlar (mendin, mening, senga, qani),



fe'llar (bo'lur, ketar, bog'lamish, topmadim, o'lmasun, nedayin), modal so'zlar (bor, yo'q, kerak), yo'rdamchi so'zlar (ham, aro, uchun) radif sifatida ishlatiladi. Shayboniy qo'llagan radiflarning aksariyati turkiy so'zlardir. Shoir ko'poq bir so'zli radiflarga murojaat qiladi. Shuningdek, uning devonida ikki-uch so'zli, takror so'zli va juft so'zli radiflar ham uchraydiki, bu ijodkordan badiiy mahorat talab etadi.

References:

1. R.Tolipova "Til va adabiyot ta'limi" kitobi. Toshkent-2004
2. M.Jumaniyazova, S.Tojiddinova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy tushunchalarini shakillantirishning maqsad va vazifalari" maqolasi
3. A.Aliev "O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. Toshkent-2016
4. www.org.uz